XALQ DEPUTATLARI SHEROBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 10-noyabr VII-17-146-8-119-K/25 Sherobod tumani

Sherobod tumanidagi mavjud ayrim geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora tadbirlari haqida”gi 295-son qarori, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspertiza komissiyasining 2025-yil 13-avgustdagi 05-19-13747-sonli yig‘ilish bayoni hamda Respublika ekspertiza komissiyasining 2025-yil 13-avgustdagi 05-19-13747-sonli ekspertiza xulosasiga asosan Sherobod tumanida 31 ta geografik obyekt (mahalla, ko‘chani)ni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha taklifi o‘rganib chiqilib ijobiy xulosa berilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi Qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi D.Jumaqulovaning tumandagi ayrim Geografik obyektlarni nomlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspertiza komissiyasining 2025-yil 13-avgustdagi yig‘ilish bayoni hamda Respublika ekspertiza komissiyasining 2025-yil 13-avgustdagi 05-19-13747-sonli ekspertiza xulosasi ma’qullansin.

3. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Ekspertiza komissiyasining 2025-yil 13-avgustdagi yig‘ilish bayoni hamda Respublika ekspertiza komissiyasining 2025-yil 13-avgustdagi 05-19-13747-sonli ekspertiza xulosasiga asosan tumandagi jami 31 ta geografik obyektlarini nomlash va qayta nomlash bo‘yicha berilgan ekspertiza xulosasi O‘zbekiston Respublikasi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 4-moddasiga asosan, qonun hujjatlariga muvofiq deb hisoblanganligi inobatga olinsin hamda tuman bo‘yicha jami 31 ta geografik obyektlarning nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tumanda geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha mavjud 31 ta geografik obyektlarning nomlari Respublika Kadastr agentligi ekspertiza komissiyasi tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq deb topilganligi inobatga olinib, ushbu 31 ta geografik obyektlarning ro‘yxati xalq deputatlari tuman Kengashi qarori asosida Respublika Kadastr agentligining davlat reyestri elektron bazasiga kiritish maqsadida viloyat hududiy komissiyasiga taqdim etilsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Xamrayev, M. Choriyev), tumandagi mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari bilan birgalikda mahalla fuqarolar yig‘inlarida ko‘cha nomlari aks ettirilgan peshlavhalarni 1 oy muddatda belgilangan tartibda o‘rnatish vazifasi topshirilsin.

6. Tuman statistika bo‘limi (K.Boboqulov), O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi kadastr agentligining davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyat boshqarmasi Sherobod tuman filiali (E.Mengliyev) nomlangan ko‘chalarning nomlarini belgilangan tartibda ro‘yxatga olish vazifasi yuklatilsin va tuman Ichki ishlar bo‘limi (I.Yusupov) fuqarolarni doimiy yashash joyiga ro‘yxatga qo‘yishda yangi nomlangan ko‘chalarni inobatga olish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash uchun tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi Qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi (D.Jumaqulova) hamda tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Xamrayev, M.Choriyev), O‘zbekiston mahallalar uyushmasi Sherobod tuman bo‘limi (T.Mirzayev) mas’ul etib belgilansin.

8. Belgilab qo‘yilsinki nomlangan ko‘chalarga peshlavhalar tayyorlash, o‘rnatish uchun sarflanadigan mablag‘lar qonunda taqiqlanmagan manbalar hisobidan qoplanadi.

9. Mazkur qaror “Sherobod hayoti” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur sessiya qarori ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish, yoshlar siyosati va sog‘lom avlodni tarbiyalash masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (N.Saidova) zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Sessiya raisi SHOYMONOV YO‘LDOSH RUSTAMOVICH

Xalq deputatlari Sherobod tumani Kengashining
2025-yil 10-noyabrdagi
VII-17-146-8-119-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Sherobod tumani

T/r	Geografik obyektning turi	Geografik obyektning joylashuvi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Hududiy komissiya tomonidan berilgan xaritaga ekspert komissiyasining izohi	Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi
1.	Mahalla	Sherobod tumani	**Xoʻjaqiya-1**	Xoʻjaqiya	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Mahalla	Sherobod tumani	**Xoʻjaqiya-2**	Anorzor, Oʻzbekiston, Yangi hayot	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Ushbu berilgan takliflardan **Oʻzbekiston** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Mahalla	Sherobod tumani	**Gʻurjak-1**	Yangi Gʻurjak, Obod Gʻurjak, Yangier	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Ushbu berilgan takliflardan **Yangi Gʻurjak** nomi tavsiya etiladi. Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Mahalla	Sherobod tumani	**Gʻurjak-2**	Gʻurjak	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

5.	Koʻcha	Doʻstlik, Gʻambur mahallalari	**Avaz Oʻtar-1**	Kasanachilik	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Koʻcha	Doʻstlik, Gʻambur mahallalari	**Avaz Oʻtar-2**	Moziy	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Koʻcha	Qishloqbozor mahallasi	**Barqarorlik**	Boburnoma	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Koʻcha	Poshxurt mahallasi	**Baxshiyona**	Mustahkam	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Koʻcha	Bahor mahallasi	**Bahor-1**	Baxtli el	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Koʻcha	Bahor mahallasi	**Bahor-2**	Xalqona	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Koʻcha	Bahor mahallasi	**Bahor-3**	Iqtisodchi	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Koʻcha	Mehnatobod mahallasi	**Gulshanbogʻ**	Baxt yoʻli	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Koʻcha	Gʻurjak 2 mahallasi	**Gʻurjak-2**	Asliyat	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
14.	Koʻcha	Oltinvoha mahallasi	**Yoshlik-2**	Zamin yulduzi	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

					koʻrsatilgan.	
15.	Koʻcha	Buyuk ipak yoʻli mahallasi	**Kunchiqar**	Yangizamon	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
16.	Koʻcha	Oltinvoha mahallasi	**Nihol-1**	Ardoqli	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
17.	Koʻcha	Balxiguzar, Taroqli mahallalari	**Nurhayot**	Maslakdosh	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
18.	Koʻcha	Mehnatobod mahallasi	**Ozod**	Muzaffariyat	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
19.	Koʻcha	Gʻambur mahallasi	**Olmabogʻ**	Tabiat	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
20.	Koʻcha	Sherobod mahallasi	**Hurlik**	Rivojlanish	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
21.	Koʻcha	Boybuloq mahallasi	**Chorvador**	Nigoh	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
22.	Koʻcha	Boybuloq mahallasi	**Chorvador**	Sayyod	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
23.	Koʻcha	Hakimobod mahallasi	**Xushnud-2**	Donolik	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.

24.	Koʻcha	Hakimobod mahallasi	**Xushnud-2**	Tantana	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
25.	Koʻcha	Gʻurjak 2 mahallasi	**Gʻurjak-2**	Odillik	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
26.	Koʻcha	Xoʻjaqiya-2 mahallasi	**Navbahor 1-tor**	Bagʻrikeng	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
27.	Koʻcha	Xoʻjaqiya-2 mahallasi	**Navbahor 2-tor**	Anorchilar	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
28.	Koʻcha	Xoʻjaqiya-2 mahallasi	**Navbahor 3-tor**	Shinam	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
29.	Koʻcha	Xoʻjaqiya-2 mahallasi	**Navbahor 4-tor**	Novda	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
30.	Koʻcha	Xoʻjaqiya-2 mahallasi	**Navbahor 5-tor**	Sogʻlom avlod	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
31.	Tor koʻcha	Xoʻjaqiya-2 mahallasi	**Navbahor 6-tor**	Navbahor	Xaritada geografik obyektning turi toʻgʻri koʻrsatilgan.	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.